



4. Dusmuhamedova, Sh. A., Botirova, D. B. Ruhiy salomatlik – psixologiyaning dolzarb muammolari. Yosh avlodning psixologik salomatligi. BuxDU. (2023). B. 10-20.
5. Fusar-Poli, P. Prevention and early intervention in youth mental health: is it time for a multidisciplinary and trans-diagnostic model for care?. International Journal of Mental Health Systems, 14(23). BioMed Central. (2020). B. 1-15.
6. Ibragimova, Sh. G. O’smirlardagi internet addiksiyasining psixologik xususiyatlari. Yosh avlodning psixologik salomatligi. Nashriyot: BuxDU. (2023). B. 80-88.
7. Mamajonova, X. Kompyuter o’yinlariga addektiv shakllanishi oldini olish bo’yicha o’smirlik davridagi o’quvchilar bilan korreksion ishni tashkil qilish dasturi. Yosh avlodning psixologik salomatligi. BuxDU. (2023). B. 67-75.
8. Mastorci, F. The Transition from Childhood to Adolescence: Between Health and Vulnerability. Nutrients, 16(16), 2675. PMC. (2024). B. 1-15.
9. Orziqulova, Ch. R. O’smirlarning emotsional his-tuyg’ulari va ularning psixologik salomatligi. Yosh avlodning psixologik salomatligi konferensiyasi materiallari. BuxDU. (2023). B. 45-52.
10. Ostanaqulov, A. D. O’smirlik yoshida suitsidal xulqning ijtimoiy-psixologik omillari. Yosh avlodning psixologik salomatligi. BuxDU. (2023). B. 120-128.
11. Sputnik O’zbekiston. O’smirlarning ruhiy salomatligini yaxshilash yo’li aniqlandi. (2023). Barcha betlar.
12. Schlack, R., Peerenboom, N., Neuperdt, L., Junker, S., & Beyer, A.K. The effects of mental health problems in childhood and adolescence in young adults: Results of the KiGGS cohort. European Child & Adolescent Psychiatry, 31(1), 177-189. PMC. (2022). B. 1-13.

BOSHLANG’ICH TA’LIMDA REFLEKSIYANING ROLI VA UNING O’QUV JARAYONIGA TA’SIRI

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Email: sarbinazalliyarovna@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang’ich ta’limda refleksiyaning shaxsiy rivojlanishdagi roli tahlil qilinadi. Refleksiya jarayoni o’quvchilarning o’z his-tuyg’ularini anglash, xatolaridan saboq olish, o’ziga bo’lgan ishonchni oshirish va ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi ko’rsatib o’tiladi.

Kalit so’zlar: refleksiya, shaxsiy rivojlanish, boshlang’ich ta’lim, hissiy intellekt, ijtimoiy ko’nikmalar, o’z-o’zini anglash, pedagogik yondashuv

РОЛЬ РЕФЛЕКСИИ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС

Шукруллаева Сарбиназ Аллияровна,

докторант Нукусского государственного педагогического института имени Аджинияза.

Email: sarbinazalliyarovna@gmail.com

Аннотация: В данной статье анализируется роль рефлексии в личностном развитии учащихся начальной школы. Процесс рефлексии способствует пониманию собственных эмоций, извлечению уроков из ошибок, повышению уверенности в себе и развитию социальных навыков у детей.

Ключевые слова: рефлексия, личностное развитие, начальное образование, эмоциональный интеллект, социальные навыки, самопознание, педагогический подход

THE ROLE OF REFLECTION IN PRIMARY EDUCATION AND ITS IMPACT ON THE LEARNING PROCESS

Shukirullaeva Sarbinaz Alliyar qizi,

PhD student of Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz

Email: sarbinazalliyarovna@gmail.com



Abstract: This article analyzes the role of reflection in the personal development of primary school students. The reflection process helps students understand their emotions, learn from mistakes, increase self-confidence, and develop social skills.

Keywords: reflection, personal development, primary education, emotional intelligence, social skills, self-awareness, pedagogical approach

Zamonaviy ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki o’quvchilarning mustaqil fikrlash, o’zini anglash va tanqidiy fikrlash ko’nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Aynan shu nuqtai nazardan, refleksiya tushunchasi ta’lim jarayonida muhim ahamiyatga ega bo’lib, o’quvchilarning o’z o’qish faoliyatlarini, hissiyotlarini va xatti-harakatlarini tahlil qilish, o’z ustida ishlash imkonini beradi. Boshlang’ich ta’lim bosqichi bolalarning shaxs sifatida shakllanishida va asosiy ko’nikmalarni egallashda muhim vaqt hisoblanadi. Shu bois, refleksiya jarayonining bu bosqichda o’rganilishi va qo’llanilishi o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bolalarning ta’limga bo’lgan munosabatini mustahkamlaydi.

Refleksiya – insonning o’z fikrlarini, his-tuyg’ularini va harakatlarini ongli ravishda tahlil qilish jarayoni bo’lib, u o’zini anglash va rivojlantirishda asosiy vosita hisoblanadi. Pedagogikada refleksiya o’quvchilarning o’z bilimlarini va ko’nikmalarini qayta ko’rib chiqish, xatolarini aniqlash, shuningdek, o’rganish usullarini va natijalarini baholashga yordam beradi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari uchun refleksiv yondashuv o’rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi, chunki ular nafaqat bilimlarni qabul qiladi, balki o’z fikrlarini shakllantirishga o’rganadi.

Refleksiya ta’limning o’zini boshqarish (self-regulation) jarayonining ajralmas qismidir. O’quvchi o’z faoliyatini rejalashtirish, bajarilgan ishni tahlil qilish va natijalarni baholash orqali o’z ustida ishlashga o’rgatiladi. Bu esa yosh bolalarda mustaqil fikrlash va o’z-o’zini nazorat qilish ko’nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang’ich ta’limda refleksiyaning joriy etilishi o’quvchilarning o’z bilimlarini chuqurroq anglashiga, mustaqil fikrlash qobiliyatining shakllanishiga yordam beradi. Refleksiya jarayoni orqali o’quvchi dars davomida qanday bilimlar egallanganini, qaysi mavzular qiyinchilik tug’dirayotganini anglaydi va o’zi uchun to’g’ri o’rganish yo’llarini izlaydi. Misol uchun, dars oxirida o’qituvchi o’quvchilarga savollar beradi: "Bugun nimani yangi o’rgandingiz?", "Qaysi savolga javob topa olmadingiz?", "Kelgusi darsda nimani yaxshilashni xohlaysiz?" Bu kabi refleksiv savollar o’quvchilarning o’z fikrlarini so’zlab berishiga, o’z o’quv jarayonini tahlil qilishga yordam beradi.

Refleksiya nafaqat o’quvchilarga, balki o’qituvchilarga ham ta’lim jarayonini chuqur tahlil qilishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi. Ayniqsa, darsdan so’ng o’qituvchining o’z faoliyatiga nisbatan tanqidiy yondashuvi, qo’llangan metod va uslublarning qanchalik samarali bo’lganini tahlil qilishi, o’quvchilarning darsdagi ishtiroki va bilimni egallash darajasi bilan bog’liq muhim xulosalarni chiqarishga yordam beradi.

Refleksiya orqali o’qituvchi o’z pedagogik amaliyotida qanday jihatlar kuchli bo’lganini, qaysi metodlar ko’proq natija berganini va qaysi yo’nalishlar ustida ishlash zarurligini aniqlaydi. Bu esa o’z navbatida nafaqat dars sifatining, balki butun o’quv jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuningdek, o’qituvchining refleksiv yondashuvi doimiy o’sishga, kasbiy rivojlanishga va yangicha metodikalarni sinab ko’rishga bo’lgan intilishni kuchaytiradi. Bunday jarayon orqali pedagog o’z ustida ishlovchi, o’zgaruvchan sharoitlarga moslasha oladigan va zamonaviy ta’lim talablari bilan hamnafas bo’lgan mutaxassisga aylanadi. Refleksiyaning shakllanishida pedagogik sharoitlar va metodlar quyidagilar:

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida refleksiyaning samarali rivojlanishi uchun o’quv muhitini va pedagogik usullarni to’g’ri tashkil etish zarur. Bu borada quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

Savollar orqali o’rganish: O’qituvchi o’quvchilarga savollar berib, ularni fikrlashga undashi, fikrlarini erkin ifoda etish imkonini yaratishi kerak.

Muammoli vaziyatlar yaratish: O’quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish uchun muammoli vaziyatlar va masalalar taqdim etish.

Guruhda ishlash: Jamoaviy ishlar orqali o’quvchilar o’z fikrlarini baham ko’rish, bir-birining fikrini tinglash va tahlil qilish ko’nikmalarini rivojlantiradi.

O’z-o’zini baholash va o’z fikrini ifoda etish: O’quvchilarga o’z ishlari haqida fikr bildirish, o’z yutuq va kamchiliklarini anglash ko’nikmalarini shakllantirish. Shuningdek, o’qituvchi pedagogik refleksiyani o’z faoliyatida muntazam qo’llashi, darsdan keyingi tahlillar va o’zini baholash jarayonlarini amalga oshirishi muhimdir. Bu pedagogik mahoratni oshirishga xizmat qiladi.

Boshlang’ich ta’limda refleksiya nafaqat akademik ko’nikmalarni rivojlantirish, balki o’quvchilarning shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bolaning o’z



ichki dunyosini anglash, hissiyotlarini tushunish va boshqarish imkonini beradi. Refleksiya orqali o‘quvchi nafaqat o‘rgangan bilimlarini tahlil qiladi, balki o‘z his-tuyg‘ulari, tajribalari va xatolarini ham chuqur o‘rganadi.

Refleksiya jarayoni bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi. O‘z harakatlari va qarorlari haqida fikr yuritish, ularni tahlil qilish va kamchiliklarni aniqlash bolaga o‘z kuchlarini qadrlashga yordam beradi. Shu bilan birga, xatolarni tan olish va ulardan saboq olish o‘quvchining mas’uliyat hissini kuchaytiradi. U o‘zining o‘rganish jarayonida faollik ko‘rsatadi, xatolarni tuzatishga intiladi va bu orqali shaxs sifatida yanada yetuklashadi.

Refleksiya shaxsiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismi sifatida ijtimoiy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jamoada ishlash, boshqalar bilan munosabatda bo‘lish, o‘z fikrlarini ifoda etish muhimdir. Refleksiya jarayonida o‘quvchilar o‘zaro fikr almashadi, boshqalar fikrini tinglashni o‘rganadi va o‘z nuqtai nazarini tanqidiy tahlil qiladi. Bu esa ularga ijtimoiy muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish va hamkorlik qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, refleksiya orqali bolalar o‘z hissiyotlarini boshqarishni o‘rganadilar. Masalan, qiyinchiliklarga duch kelganda yoki noto‘g‘ri qaror qabul qilganda, ular o‘z his-tuyg‘ularini anglab, qanday yo‘l tutish kerakligini tushunishadi. Bu hissiy barqarorlik va o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, refleksiya bolaning o‘z-o‘zini anglashini oshiradi, bu esa uning shaxs sifatida kamol topishiga yordam beradi. O‘z kuchli va zaif tomonlarini bilish, o‘z maqsadlarini aniqlash va ularga erishish uchun reja tuzish imkonini yaratadi. Bu esa shaxsiy o‘rinish va rivojlanishning poydevorini tashkil etadi. Natijada, boshlang‘ich ta’limda refleksiya jarayoni bolalarning nafaqat intellektual, balki hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shadi. Pedagogik jarayonda refleksiyani qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, o‘z-o‘zini anglashini va shaxs sifatida yetuklashini ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shu bois, pedagoglar refleksiv yondashuvlarni ta’lim jarayoniga keng joriy etishlari lozim.

Xulosa qiladigan bolsak boshlang‘ich ta’limda refleksiyaning roli o‘quvchilarning o‘z bilimlarini tahlil qilish, mustaqil fikrlash va o‘zini anglash ko‘nikmalarini shakllantirishda juda muhimdir. Pedagogik jarayonda refleksiv yondashuvlarni qo‘llash o‘qituvchining kasbiy mahoratini oshiradi hamda ta’lim sifatini yaxshilaydi. Shu bois, boshlang‘ich sinfda refleksiyaning samarali rivojlanishi uchun o‘quv muhitini optimallashtirish, interaktiv metodlarni keng qo‘llash va o‘quvchilarning o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini mustahkamlash zarur. Refleksiya nafaqat akademik yutuqlar, balki shaxs sifatida o‘quvchilarning rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Sattorova M.M. Pedagogik refleksiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
- 2.Ibragimov A.X. Refleksiya – pedagogik faoliyatning asosi sifatida. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
- 3.Qodirova D. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning refleksiv kompetensiyasini rivojlantirish. // Pedagogika jurnali, 2023, №2, B. 45–49.
- 4.G‘ofurova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida refleksiv fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish. – Nukus: NDPI, 2022.
- 5.Rasulova Z. Refleksiya: Ta’limdagi psixologik yondashuvlar. – Samarqand: Zarafshon nashriyoti, 2020

REKLAMA VA MARKETINGDA MADANIYATLARARO FARQLAR

Murodova Rayxona Jo‘rabek qizi

e-mail: rayxonamurodova15@gmail.com

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi talabalari

Ochilova Xursanoy Maxmud qizi

Fan doktori, Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti

ochilovaxursanoy26@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada reklama va marketing sohasida turli madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinadi. Globalizatsiya jarayonida xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatga erishish uchun madaniy omillarni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda Hofstede madaniy o‘lchovlari nazariyasi asosida turli mamlakatlardagi iste’molchilarning qadriyatlar, reklama uslublari va marketing strategiyalaridagi farqlar yoritilgan.